

FONEMIK INTERFERENSIYA TIPOLOGIYASI

Radjabov Nasir Nasimovich,

O'zbekiston Resp. Oriental universiteti

Tillar 2 kafedrası professori v.b.,

filologiya fanlari doktori (DSc,) dotsent

E-mail: nasirnasimovich@mail.ru

Tel: +998903190409

Maqola "Fonemik interferensiya tipologiyasi" mavzusiga bag'ishlangan. Unda fonemik interferensiya turlari va ularning xorijiy til talaffuzidagi ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Maqola, fonemik interferensiyaning turli shakllarini aniqlash va tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, unda fonemaning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatları o'rganilgan hamda har bir jihatning fonemik interferensiya turi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada fonemik interferensiya tipologiyasini shakllantirishda fonema tovushlarining mukammal talaffuzida ahamiyatga ega bo'lgan jihatlarning o'zaro bog'liqligi va ularning talaffuzga ta'siri batafsil izohlangan.

Kalit so'zlar: *fonemik interferensiya, fonetik interferensiya, fonologik interferensiya, morfonologik interferensiya, fonostilistik interferensiya, grafemik interferensiya, orfografik interferensiya, orfoepik interferensiya*

Статья посвящена теме «Типология фонематической интерференции». В ней представлен детальный анализ видов фонемной интерференции и их значимости в произношении иностранных языков. Цель статьи — выявить и систематизировать различные формы фонемной интерференции, рассматривая артикуляторно-акустические, перцептивные, фонологические, морфонологические, фоностилистические, графемные, орфографические и орфоэпические аспекты фонем. В статье подчеркивается важность каждого из этих аспектов как формы фонемной интерференции. Кроме того, подробно объясняется взаимосвязь между этими аспектами и их влияние на точность произношения, с акцентом на их роль в формировании типологии фонемной интерференции.

Ключевые слова: *фонемная интерференция, фонетическая интерференция, фонологическая интерференция, морфонологическая интерференция, фоностилистическая интерференция, графемная интерференция, орфографическая интерференция, орфоэпическая интерференция.*

The article is dedicated to the topic of "Typology of Phonemic Interference." It provides an in-depth analysis of the types of phonemic interference and their significance in the pronunciation of foreign languages. The article aims to identify and systematize various forms of

phonemic interference, exploring the articulatory-acoustic, perceptual, phonological, morphonological, phonostylistic, graphemic, orthographic, and orthoepic aspects of phonemes. It highlights the importance of each aspect as a type of phonemic interference. Furthermore, the article explains in detail the interrelation of these aspects and their influence on accurate pronunciation, emphasizing their role in shaping the typology of phonemic interference.

Keywords: phonemic interference, phonetic interference, phonological interference, morphonological interference, phonostylistic interference, graphemic interference, orthographic interference, orthoepic interference.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda fonemik interferensiya fenomeni muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli tillar o'rtasidagi fonetik va fonologik aloqadorlikni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. "Fonemik interferensiya tipologiyasi" tadqiqi ushbu murakkab jarayonning turli ko'rinishlarini aniqlash va tizimlashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda fonemaning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlari atroflicha tahlil qilinib, ularning chet til talaffuziga ta'siri ilmiy asosda izohlangan. Mazkur tadqiqot fonemik interferensiyaning nazariy asoslarini aniqlash va olingan natijalarni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, nutq tovushlari artikulyatsion-akustik, perseptiv (eshitib his etish) va lingvistik (so'z shakli va ma'nosini tanituvchi va farqlovchi vazifasi) jihatdan o'rganiladi [8, 37]. Nutq tovushlarining artikulyatsion-akustik, hamda perseptiv jihatlari umumlashtirilib, ularning fonetik xususiyatlari; lingvistik jihatida esa nutq tovushlarining fonologik xususiyatlari, deb talqin qilinadi. Shuningdek, nutq tovushlari morfonologik [12, 35], fonostilistik [10, 25], orfoepik [1, 25] jihatdan; nutq tovushlari shaklida namoyon boladigan fonemalar grafemik [7, 28; 9, 90-98], orfografik [11, 22], nuqtayi nazaridan ham tadqiq qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Fonemik interferensiya tipologiyasi" mavzusiga bag'ishlangan ushbu tadqiqotda lingvistik tahlil, tavsiflash, chog'ishtirish va tasniflash metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida fonemik interferensiyaning turli shakllarini aniqlash, tasniflash va ularning xorijiy til talaffuziga ta'sirini o'rganish asosiy maqsad qilib olindi. Fonemik interferensiyaning artikulyatsion-akustik, perseptiv,

fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlari alohida o'rganilib, ularning har biri batafsil tasvirlandi va tizimlashtirildi. Tilning fonemik tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan interferensiya turlari o'zaro farqlanib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Xususan, fonemik interferensiyaning har bir turi xorijiy til talaffuziga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida olingan natijalar asosida fonemik interferensiyaning tipologik tasnifi ishlab chiqildi va har bir interferensiya turi haqida xulosalar chiqarildi. Ushbu metodlar orqali fonemik interferensiyaning turli shakllarini aniqlash, ularning lingvistik tavsifini berish va xorijiy til o'qitish amaliyotida muhim bo'lgan jihatlarni yoritish maqsad qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy tillardagi fonema tovushlarini chet til sifatida mukammal talaffuz qilishga erishishda ularning artikulyatsion-akustik, perseptiv hamda lingvistik jihatlari bilan bir qatorda morfonologik, fonostilistik, orfoepik jihatlarning ona tili bilan chog'ishtirma aspektda qay darajada tadqiq qilingani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfonologik aspektda morfema tarkibidagi fonemalarning fonetik kontekst taqozosiga ko'ra o'zaro almashib qo'llanish xususiyatlari tadqiq qilinadi. Masalan, ingliz tilida reform [rɪ'fɔ:m] v. so'ziga ot yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan fonetik sharoit tufayli o'zak morfema tarkibidagi /ɔ:/ fonemasi /ə/ fone-masi bilan almashishi fonemalarning morfonologik xususiyatlariga misol bo'ladi: [rɪ'fɔ:m] v. - reformation [refə'meɪʃən] n.

Fonemalarning stilistik xususiyatlari ularning fonostilistik jihatini tashkil qiladi. Fonostilistik aspektda fonemalarning so'zdagi konnotativ ma'noni o'zgartirish hamda uslubiy ma'noga ta'sir etish xususiyatlari tadqiq qilinadi. Fonemaning konnotativ ma'noga ta'siri, asosan, uning miqdor belgisidagi o'zgarish orqali yuzaga keladi. Uslubiy maqsadda nutq tovushlarining cho'ziqroq talaffuz qilinishi, tovush cho'-ziqligining fonostilistik xususiyati hisoblanadi.

Fonema tovushlarini turli nuqtayi nazardan tadqiq qilishda ularning artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik va fonostilistik xususiyatlari bilan bir

qatorda, grafemik, orfografik va orfoepik jihatlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, fonema tovushlarini me'yor doirasida talaffuz qilishda fonemalarning fonetik-fonologik xususiyatlari bilan ularning grafemik, orfografik va orfoepik jihatlari o'rtasida o'zaro uzviy bog'liqliklar borligini rad etib bo'lmay-di. Jumladan, L.R. Zinder fonetika va orfografiyaning o'zaro aloqador ekanligini ta'kidlab, shu nuqtayi nazardan, umumiy fonetika fonetik yozuv nazariyasini ham qamrab olishi zarur, degan fikrni ilgari surgan edi [5, 282]. Fonemalarning yozma nutqda ifodalanish qonuniyatlariga xos xususiyatlari ularning grafemik jihati bo'lib [2, 117], bunda harf va fonema o'rtasidagi munosabatlar tadqiq qilinadi. Fonemalarning yozuvdagi shakli bo'lgan harflar tizimi – alifboning yozuvda qo'llanish xususiyatlari, ya'ni imlo qoidalari fonemalarning orfografik jihati sanalib [13, 77], bunda nutq tovushlarining so'zlar tarkibida eshutilishi va yozilishi o'rtasidagi munosabatlarining o'ziga xosliklari o'rganiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, fonema yozma nutqda alohida yoki boshqa fonema vakillari bilan uyushgan holda ifodalanishi mumkin. Fonemaning yozuvdagi alohida shakli odatda, ularning alifbo tarkibida, boshqa fonema vakillari bilan birikib kelishi esa ularning ma'lum bir so'z tarkibida uchrashida namoyon bo'ladi. Fonemaning yozma nutqda "alohida" ifodalanishidagi o'ziga xosliklar grafemik, so'z tarkibida qo'llanishi bilan bog'liq xususiyatlar orfografik jihatdan tadqiq qilinadi.

Fonema tovushlarining artikulyatsion-akustik xususiyatlari asosida ularning talaffuz me'yorlariga xos qoidalar shakllanadi. Fonemalarning adabiy talaffuz me'yorlariga xos qoidalar tizimi ularning orfoepik jihati sanaladi [13, 77]. Bunda fonema to-vushlarining me'yoriy talaffuz qonuniyatlariga xos xususiyatlari talqin qilinadi. Masalan, unli fonemalarning urg'uli va urg'usiz holatdagi, undosh fonemalarning yondosh tovushlar ta'siridagi allofonlarining o'ziga xos talaffuzlari shular jumlasidandir. Demak, tildagi fonemalar o'zlari yoki allofonlari misolida tadqiqot maqsadiga bog'liq holda, asosan, artikulyatsion-akustik, perseptiv, fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik, orfoepik nuqtayi nazarlaridan tadqiq qilinadi.

Odatda, tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, fonemaga oid interferensiyaning u yoki bu turlarini farqlash mumkin. Tabiiyki, bunday tadqiqotlarda nutq tovushlarining voqelanishiga oid interferensiya turlari ham farqlanadi [3, 17; 6, 1-13; 4, 128]. Mazkur tadqiqotlarning aksariyatida tilning tovush sohasiga oid interferensiya turlari til yaruslaridan biriga, shuningdek, til yaruslaridan biri va grafik, orfografik kabi til tizimlaridan biriga asoslanib tasnif qilingan. Shuning uchun ham nutq tovushlariga oid interferensiya turlarining mavjud tasniflari o‘zaro u yoki bu darajada farq qiladi. Bizningcha, mazkur interferensiyaning turlarga ajratishda fonema tovushlarining me’yor doirasida talaffuz qilishga xalaqit beradigan barcha lingvistik omillarni hisobga olgan holda fonemik interferensiya tipologiyasiga tilning asosiy (fonetik, fonologik) va ikkinchi darajali (morfonologik, fonostilistik) yaruslari, shuningdek, grafik, orfografik va orfoepik tizimlari nuqtayi nazaridan kompleks yondashish lozim. Shu nuqtayi nazardan, biz, fonemik interferensiya, deganda, fonemalarni ularning ma’lum bir allofoni bilan me’yor doirasida talaffuz qilinishiga xalaqit beradigan barcha “to’siqlar” majmuyini tushunamiz va unga nazariy jihatdan shunday ta’rif beramiz: *“Fonemik interferensiya nafaqat artikulyatsion-akustik nomutanosibliklarni, balki fonologik, morfonologik, fonostilistik, grafemik, orfografik, orfoepik to’siqlarni, shuningdek, fonema tovushlarini me’yor doirasida talaffuz qilishga xalaqit beradigan boshqa lingvistik omillarni ham o‘z ichiga qam-rab oladigan, boshqacha aytganda, fonema allofonlarining me’yoriy talaffuzidan og‘ishga sabab bo‘ladigan barcha to’siqlar majmuyidan iborat bo‘lgan fonologik interferensiya turidir”*. Demak, fonemik interferensiyaning turlarga ajratishda tilning asosiy va ikkinchi darajali yaruslari, shuningdek, grafik, orfografik, orfoepik tizimlariga alohida-alohida emas, balki ularga kompleks nuqtayi nazardan yondashish mushtarak fonemik interferensiya turlarini tizimlashtirishda hamda tipologik tasnifning mukammal bo‘lishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur nazariyaga asoslanib, tadqiqot jarayonida fonemik interferensiyaning quyidagicha tipologik tasnifi ishlab chiqildi: 1) *fonetik asosli fonemik interferensiya: a) artikulyatsion-akustik asosli fonemik interferensiya, b) perseptiv*

asosli fonemik interferensiya, d) distributiv asosli fonemik interferensiya; 2) fonologik asosli fonemik interferensiya, 3) morfonologik asosli fonemik interferensiya, 4) fonostilistik asosli fonemik interferensiya, 5) grafemik asosli fonemik interferensiya, 6) orfografik asosli fonemik interferensiya, 7) orfoepik asosli fonemik interferensiya.

Fonetik asosli fonemik interferensiyada fonemalarning artikulyatsion-akustik, perseptiv (fonemalarning eshitib, his qilinishi), distributiv xususiyatlari; fonologik asosli fonemik interferensiyada fonemalarning soʻzning denotativ (lugʻaviy) maʼnosini farqlash jihati; morfonologik asosli fonemik interferensiyada maʼlum bir fonetik kontekst taʼsirida morfema tarkibidagi fonemalar almashinuvi; fonostilistik asosli fonemik interferensiyada fonemalarning soʻzning konotativ maʼnosini farqlash vazifasi; grafemik asosli fonemik interferensiyada fonemalarning yozma nutqda ifodalanish qonuniyatlari; orfografik asosli fonemik interferensiyada fonemalarning soʻzlar tarkibida eshitilishi va yozilishi oʻrtasidagi munosabatlar; orfoepik asosli fonemik interferensiyada fonema allofonlarining adabiy talaffuz meʼyorlari bilan bogʻliq holda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xatoliklar tushuniladi va ularga sabab boʻladigan omillar aniqlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, fonemik interferensiyaning maʼlum bir tillar misolida tipologik tasnif qilishda tasnif asosini fonetik asosli (artikulyatsion-akustik asosli, perseptiv asosli, distributiv asosli), fonologik asosli, morfonologik asosli, fonostilistik asosli, grafemik asosli, orfografik asosli, orfoepik asosli fonemik interferensiya turlari tashkil qiladi. Xorijiy til oʻrganish jarayonida mazkur fonemik interferensiya turlarini hisobga olish fonemalar talaffuzini samarali oʻzlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, fonemik interferensiyaning chuqur oʻrganish va tahlil qilish til oʻrganuvchilarning fonetik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda interferensiyaning har bir turini aniqlash va unga mos strategiyalarni ishlab chiqish xorijiy tilni oʻzlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shu bois, fonemik interferensiyaning turli jihatlarini inobatga olish til o'rganish samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Арустамян М.И. Интерференция согласных в русской речи армян: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ереван, 2003. – 25 с.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Энциклопедия, 1966. – 605 с.
3. Бонгкот А. Тайско-русская фонетическая интерференция (сегментный уровень): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 17 с.
4. Вавилова Е.Н. Графическая и фонетическая интерференция в речи вьетнамских студентов// Молодой учёный. Ежемесячный научный журнал. – 2010. – № 10 (21). – С.128-133.
5. Зиндер Л.Р. Общая фонетика. – М.: Высшая школа, 1979. – 238.
6. Корнев В.А. Графическая интерференция// Международный информационно-аналитический журнал «Crede Experto: транспорт, общество, образование, язык». – 2015. – № 2 (05). – С.1-13.
7. Кузьмина Т.В. Функциональный анализ фонемно-графемных соответствий в письменной речи детей (на материале согласных): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 28 с.
8. Максумов А.Г. Артикуляционные, акустический, перцептивные и фонологические характеристики английских носовых сонантов (а сопоставлении с узбекскими): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1972. – 37 с.
9. Рогозная Н.Н. К вопросу о графической интерференции при обучении русскому языку иностранцев // Вопросы филологии. – 2003. – №1. – С. 90-98.
10. Сапарова К.О. Проблемы сегментной и суперсегментной (акцентной) фоностилистики русского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Т., 2000. – 25 с.

11. Тью Ф.А. Орфографические отражения неправильного произношения у вьетнамских учащихся: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2013. – 22 с.

12. Кудайбергенов М. Қорақалпоқ тилида морфонологик ҳодисалар: Филол. фан. д-ри. дисс: Автореф. – Нукус, 2004. 35-б.

13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзб. Мил. Энциклоп. Нашр., 2002. – 164.